

MUHAMMAD YUSUFNING “OTA UY” SHE’RIDA QO’LLANILGAN OYKONIMLAR

Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a pedagogika fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi

3-bosqich talabasi **Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'riyatidagi oykonimlarning o'rni haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Muhammad Yusufning "Ota uy" she'ridagi joy nomlari etimologik jihatdan tahlil qilingan. She'rda qo'llangan oykonimlar va joy ta'rifi, joy nomlarining etimologiyasi, oykonimlar shakllanishining tarixiy xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf, toponim, oykonim, etimologiya , tarixiy shakllanish, Shosh, O'sh, Boysun.

Mustaqillik elimizga o'zini va o'zligini anglash baxtini, milliy, madaniy adabiy va diniy qadriyatlarini va urf-odatlarini tiklash, asriy an'analarga qayta jon berish va shakllantirish imkoniyatini in'om qildi. Istiqlol yillarda yurtimiz hududidagi joy nomlarning(antroponimlar) qaysi tilga mansub ekanligi, etimologik xususiyati toponimlarning va oykonimlarning shakllanish tarixi ya'ni etimologiyasi o'rganildi. Antroponimlar uzoq tarixiy davrning muhim yodgorliklaridan biri bo'lib, yurtimiz tarixini, uning etnik tarkibini, shuningdek, aholi manzilgohlarining hududiy va ijtimiy xususiyatlarini, xalqimizning yashash tarzini o'rganishda muhim manba sanaladi. Oykonimlar tarkibiga shahar, shaharcha, posyolka, aholi punkt, ovul va boshqa aholi manzilgohlari mansub bo'lib ular boshqa turdag'i geografik nomlar orasida alohida ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turuvchi turidir. Oykonimlar vositasida hududning tabiiy va iqtisodiy geografik sharoiti, birqancha elat va xalqlarning milliy-etnik tarkibi hamda tarqalish xususiyatlari, tarixda ya'ni uzoq o'tmishda ro'y bergan ahamiyatli voqe'a va hodisalar haqida batafsil ma'lumot olishimiz mumkin. Oykonimlar bilan tanishish jarayonida hududning etmologiyasi ham o'rganiladi. "Etimologiya" atamasi yunoncha ildizlarga ega bo'lib "haqiqat", "ta'limot" degan ma'nolarni bildiradi. Oykonimlar etmilogiyasida aholi manzilgohlarining tarixiy ildizlari, shakllanishi o'rganiladi.

Muhammad Yusuf she'riyatida antroponimlar (shaxs nomlari) bilan bir qatorda toponimlar (joy nomlari) ham salmoqli o'rinn egallaydi. Sho'ir she'rlerida

oykonimlarni qo'llash orqali syujet mazmunining yoritilishida aniqlik, yuksak saviyadagi mazmun, ko'tarinkilik ifoda etilganiga guvoh bo'lamiz. Muhammad Yusuf she'riyatida oykonimlarning qo'llanilishi juda o'rinni bo'lgan. She'rlarida keltirilgan oykonimlar she'rning mohiyatini ochib berishda katta ahamiyatga ega sanaladi. Misol uchun shoirning "Ota uy"¹ she'rida:

Biri **Shoshda**,

Biri **O'sh**,

Biri endi **Boysunda**.

Hol so'raydi qizlardan

Ona bo'lib oy tunda.

Ushbu bandda keltirib o'tilgan oykonimlarga to'xtalsak: **Shoshda**- Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda va yodgorliklarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shaklidagi variantlari uchraydi. Choch so'zi ham so'g'd tilida "tosh" ma'nosini bildiradi. Shosh shakli esa esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deganda Toshkent va uning atrofidagi hududlar tushunilgan. Yozma manbalarda keltirilishicha, Toshkent shahrining qadimgi nomi "Choch" bo'lgan. Toshkent shahri arablar tomonidan bosib olingach, arab alifbosida "ch" harfining yo'qligi sababli asarlarda "Shosh" deb keltirilgan. Ilk o'rta asrlarda shahar nomi "Choch", "Shosh", "Shoshkent" deb nomlangan.² X asrda noma'lum muallif tomonidan yozib qoldirilgan fors-tojik tilidagi "Hudud ul-olam" ("Dunyoning sarhadlari") nomli asarda shahar haqida bunday ma'lumot keltirilgan: "Choch katta viloyat, xalqi jangovar, boy va saxiydir. U yerda o'q-yoy tayyorlanadi. Binkat Chochning poytaxti. Bu katta shahar, ayni vaqtida podshoning qarorgohidir." Manbalarda keltirilishicha, Shosh viloyatida 30 ga yaqin, Iloqda esa 13 ta yirik shahar mavjudligi qayd etilgan. Arab geograflari manbalarda Shoshda 25 yoki 27 ta, Iloqda 13 ta shahar mavjud ekanligi haqida ma'lumot keltirib o'tishgan. Istahriy esa Shoshda 27 ta, Iloqda 14 ta shahar borligini qayd etgan. Arab geografi Al-Muqaddasiy (940-1000) esa Shoshda 34 ta, Iloqda 14 ta shahar mavjud ekanligini yozib qoldirgan.

O'sh – qirg'izcha "osh." Ushbu shahrning aniq etimologiyasi noma'lum. Ammo toponimning ba'zi versiyalari mavjud:

1) Bir rivoyat borki, unda keltirilishicha, bir marta podshoh Sulaymon (Sulaymon) o'zining yurishlaridan birida butun qo'shinni boshqarib, qo'shindan oldinda yurib

¹ Muhammad Yusuf "Saylanma" Sharq nashriyoti. Toshkent-2007. 74-bet

² Sh.Rahmatullayeva. "Toponimlar lug'ati" 1978.

bir juft ho'kizni omochga bog'lab haydagan. Ho'kizlar mashhur tog'ga yetib borishgan jahoti, podshoh Sulaymon to'xtash joyini yoqtirdi va hayvonlarni to'xtatish uchun qichqirdi: "Hosh!" - "Bo'ldi!", Bu undov esa kelajakdagi "O'sh" shahariga nom berdi.

2) Toponimning versiyalaridan biriga ko'ra, "O'sh" so'zining o'zi o'zbek tilidan olingan "osh" "ovqat, palov" degan ma'noni anglatishi chunki ko'pchilik O'sh shahrini mayiz va somsalar bilan va palov bilan bog'laydi.

2) O'sh toponimi forscha "khush" ('huwuš) dan olingan "yoqimli, yaxshi ya'ni "Yoqimli shahar" degan ma'noni anglatadi.

O'sh Markaziy Osiyoning diniy muslimon markazlaridan biri bo'lgan shaharlardan biri edi. Ushbu shahar markazidagi qadimiy masjidlar, shuningdek, an'anaviy ziyoratgoh sanaladigan Sulaymon Tog'i (Taxt-I Sulaymon, Sulaymon taxti) bilan mashhur.

Boysunda. Surxondaryo viloyatining Boysun tumani "boy" so'zi tog' nomlari tarkibida muqaddas, ulug', katta, ma'nolarini anglatadi. Tog'ga sig'inish va tog' kulfati asosida ulkan tog'lar nomlangan. To'ra Nafasova va Vazira Nafasovalarning "O'zbek tili toponomilar o'quv izohli lug'ati"da "Boysun qadimgi turkiy boy/bay/poy;pay;moy/may/umay/ulug', buyuk, muqaddas, katta sin/sun/shin,chin/ulkan tog', katta tog'. Tog' nomi tuman nomiga o'tgan ³deb keltiriladi. "Baysin" so'zi "bay" so'zining shevaga moslashib ketishi hamda "sin" so'zining tilimizda "sun" shaklida fonetik o'zgarishga uchrashi natijasida Boysun holatiga kelgan bo'lishi mumkin.

Shoirning oykonimlarni qo'llashda nimalarga ahamiyat qaratganiga e'tibor beradigan bo'lsak, "Ota uy" she'rida Shosh, O'sh, Boysun shaharlarini uch qutb deya keltirib o'tgan. Chunki ushbu shaharlar tarixiy shaharlar bo'lib, geografik joylashuvi jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan. Shahar nomlarini tanlash jarayonida faqat qofiya uyg'unligiga emas, balki, shaharlarning geografik joylashuvi etnik tarkibi, xalqning yashash sharoiti, madaniy holatiga ham e'tibor qaratgan. Chunki bu orqali ota farzandlarini bir-biridan uzoq joyga uzatgani bilan ularning yashash tarzi haqida g'amxo'rlik qilganini ko'rsatib o'tgan.

Endi opa-singillar

Ko'rishadi yilda bir.

Ushbu jumla orqali esa, ota farzandlarini bir-biridan uzoq joyga uzatgani va yilda bir martagina ko'risha olishini yoritgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa, ota

³ To'ra Nafasov va Vazira Nafasova "O'zbek tili toponomilarining o'quv izohli lug'ati" Toshkent "Yangi nashr avlod" 2007. 69-b.

qizlarining bir-biri bilan mehr oqibatli bo‘lishini xohlagan. Chunki xaqimizda shunday bir maqol bor “Oldingdan oqqan suvni qadri yo‘qdir.” Bir-birlaridan uzoq hududlarda yashovchi opa-singillar yanada mehribon bo‘lishi, diydor ko‘rishgan paytda esa turli xil muhitdan gaplashgan holda yanada tafakkur dunyosi boyishini maqsad qilgan. Negaki, turli xil muhit inson tabiatiga uning ma’naviy dunyosiga ta’sir ko‘rsatadi. Shoир ushbu shaharlarni faqat geografik joylashishi jihatdan olis bo‘lganidan emas, balki o‘sha davrning ilm-fan, san’at va madaniyat rivojlangan aholi soni ko‘p bo‘lgan shaharlar bo‘lgani uchun ham tanlaganligi aytishimiz mumkin.

Keng qasrga kelin bo‘l,
O‘z ashyoning bo‘lakcha.
Ota uying oldida
Bu dunyo bir ko‘lmakcha...

Qizlarning kelinlik uyini ota uyi bilan taqqoslaydigan bo‘lsak , Shosh, O‘sh, va Boysun shaharlari xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, yashash tarzi qizlarning tug‘ilib o‘sgan hududiga nisbatan ancha yuqori darajada rivojlangan. Buni yuqorida keltirib o‘tilgan Shosh, O‘sh va Boysun shaharlarning uylari keng qasr deya ta’riflanganligidan bilib olishimiz mumkin. Shoир she’rning keyingi bandlarida qanchalik hashamatli bo‘lishidan qat’iy nazar, tug‘ilib o‘sgan kichkina oddiygina hovlining qadri bo‘lakcha bo‘lishini, inson tug‘ilib o‘sgan joyini har doim qadrlashi kerak ekanligini o‘quvchiga uqtirishni maqsad qilgan. Ota o‘z farzandlariga ota uyning o‘rni va qadrining qay darajada qimmatli ekanligini ko‘rsatib o‘tishni ko‘zda tutgan.

She’riyatda oykonimlar qo’llash orqali she’rning mazmun-mohiyatini o’rganish bilan bir qatorda shahar, shaharcha, posyolka, aholi punkt, ovul va boshqa aholi manzilgohlaring nomlari, ularning kelib chiqishi, tarixi ham o‘rganiladi. She’riyatdagi oykonimlar nafaqat tilshunoslarga va adabiyotshunoslarga, balki, tarixchilarga hamda geograflarga ham boy ilmiy material beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Yusuf “Saylanma” Sharq nashriyoti. Toshkent-2007. 74-bet
2. To’ra Nafasov va Vazira Nafasova "O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug’ati" Toshkent "Yangi nashr avlod" 2007. 69-b.
3. Tursunov.S O‘zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi. Termiz-Surxon - nashr, 2017. 188-b.
4. Qorayev S. O‘zbek toponimlari, 1970. 117-b.
5. Sh.Rahmatullayeva."Toponimlar lug'ati"1978.
6. Atlas mira. — M.: PKO „Kartografiya“ Federalnogo agentstva geodezii i kartografii Ministerstva transporta Rossiyskoy Federatsii: Izdatelstvo Oniks, 2008.